



PROCEDURES OF RECEPTION CEREMONIES DURING THE REIGN OF KHOREZMSHAH ANUSHTEGINS

Jurabek Polvonov

PhD

Tashkent Military Academic Lyceum "Temurbeklar Maktabi"

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: polvonovjurabek@e-mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: Anushtegin, 1043, Khorezm, Shihobuddin Muhammad Nasavi, emirs, jurists, Qurqa, Jalaluddin, Political and official ceremonies, Ambassador reception ceremony, Religion and religious ceremonies, Ruler's enthronement ceremony, Elders and the place of enlightenment.

Received: 24.01.25

Accepted: 26.01.25

Published: 28.01.25

Abstract: In this article, a lot of valuable information about the history of reception ceremonies during the time of Khorezmshah Anushteginis was studied and analyzed.

XORAZMSHOH ANUSHTEGINIYLAR DAVRIDA QABUL MAROSIMLARI TARTIBLARI

Jurabek Polvonov

PhD

Toshkent "Temurbeklar maktabi" harbiy Akademik litseyi

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: polvonovjurabek@e-mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Anushtegin, 1043-yil, Xorazm, Shihobiddin Muhammad Nasavy, amirlar, faqihlar, Qurqa, Jaloliddin, Siyosiy va rasmiy marosimlar, Elchi qabul qilish marosimi, Din va diniy marosimlar, Hukmdorning taxtga chiqish marosimi, Oqsoqollar va ma'rifatning o'rni.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazmshoh Anushteginiylar davrda qabul marosimlari tarixiga oid ko'plab qimmatli ma'lumotlar o'rganildi va tahlil qilindi.

ПОРЯДОК ЦЕРЕМОНИЙ ПРИЁМА В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ ХОРЕЗМШАХОВ АНУШТЕГИНИДОВ

Джурабек Полвонов

доктор философии

Ташкентский военный академический лицей «Темурбеклар мактаби»

Ташкент, Узбекистан

E-mail: polvonovjurabek@e-mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ануштегин, 1043, Хорезм, Шихобуддин Мухаммад Насави, эмиры, правоведы, Курка, Джалалуддин, Политические и официальные церемонии, Церемония приема посла, Религия и религиозные обряды, Церемония интронизации правителя, Старейшины и место просветления.

Аннотация: В данной статье было изучено и проанализировано много ценных сведений об истории приемных церемоний во времена хорезмшаха Ануштегиниса.

Ushbu maqolamizda biz Xorazmshoh Anushteginiyalar davrida hukmdorning qabul marosimlari tarixi masalasiga to‘xtalamiz. Anushteginiyalar sulolasiga Xorazmda saljuqiylar 1043-yili Xorazmni zabit etib, (1097-1231) asos soldilar. Qutbiddin Muhammad (1097-1127), Jaloliddin Otsiz (1127-1156), El-Arslon (1156-1172), Sultonshoh Mahmud (1172-1193) hamda Alouddin Takish (1172-1200), Muhammad Xorazmshoh (1200-1220) va Jaloliddin Manguberdi (1220-1231) ushbu sulolaning hukmdorlari bo‘lganlar.

Xorazmshohlar davri tarixiga oid muhim manbalardan murassalot (xabarnoma, maktubot, insho) janridagi asarlarii tilga olish mumkin. Bunday rasmiy xat va nomalardan iborat to‘plamning biri Rossiya FA SHI da saqlanadi. Hujjatlarning katta bir qismi Muntajabaddin Badi’, ya’ni Sulton Sanjarning munshiysi qalamiga taalluqlidir. To‘plamda Rashidaddin Vatvot qalamiga mansub xat va nomalar mavjud (masalan, El Arslonning xalifa devoniga yuborilgan xati). To‘plamda Otsizning Sanjarga itoat etgani haqidagi nomasi, Otsizning o‘z isyonini oqlab, Sanjarni ayblashi kabi qiziqarli materiallar sanaladi[1].

Xorazmshohlar qabul marosimlariga oid ma’lumotlar o‘rta asr manbalarida u yoki bu ko‘lamda o‘z aksini topgan. O‘zbekiston Respublikasi FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida Xorazm tarixiga oid o‘rta asrlarda yaratilgan nodir qo‘lyozmalar: jumladan, Ibn al-Asirning (1160-1234) “Al-komil fi-t-tarix” (“Mufassal tarix”)[2] asari muhim manbalardan biridir.

Yoqt al-Hamaviyning “Mu’jam al-buldon” (Mamlakatlar qomusi)[3], “Mu’jam al-udabo” (“Adiblar lug‘ati”)[4] asari qomusiy xarakterga ega bo‘lib, unda O‘rta Osiyo, xususan Xorazm vohasida humkdor qabuliga oid qimmatli ma’lumotlar mavjud. Rashiduddin ibn Fazlulloh ibn Imoduddavla Abu-l-xayr al- Hamadoniy (1247-1318) ning jahon tarixini o‘z ichiga olgan “Jome’

ut-tavorix” (“Tarixlar majmuasi”)[5], Shihobiddin Muhammad Nasaviy (? - 1249) O‘rta Osiyo, O‘zbekiston, Kavkaz, Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlaridan mo‘g‘ul istilosi davridagi (1220-1231 yy.) ijtimoiy-siyosiy ahvoldidan babs yurituvchi “Sirat as-sulton Jalol ad-Din Menkburni” (“Sulton Jaloliddin Manguberdi hayoti va tafsiloti”)[6] qimmatli kitob yozib qoldirgan, Nizomi Aruzi Samarqandiy (XI asrning 90 yillarida tug‘ilgan -?) ning “Majma’ al-g‘aroib” (“Ajoyibotlar majmuasi”) yoki “Chor maqola”[7] kabi manbalarda biz o‘rganayotgan mavzuga oid ma’lumotlar mavjud.

S.P.Tolstovning “По следам древнекорезмийской цивилизации”[8], Iso Jabborovning “Buyuk Xorazmshohlar davlati”[9], T.Saidqulov tomonidan “O‘rta Osiyo xalqlari tarixining tarixshunosligidan lavhalar”[10] kitobi, chet elliq olimlardan xususan, tarkiyalik olimlardan Ibrohim Qofas o‘g‘lining “Xorazmshohlar davlati tarixi”[11] kitobida 1092-1221, Ushbu mavzuga bag‘ishlangan tadqiqotlardan yana biri bu – Z.M. Buniyatovning “Anushtagin – Xorazmshohlar davlati” (1097-1231)[12] asaridir.

Tadqiqot davomida shu ma’lum bo‘ldiki, Xorazmshox qabul marosimlarini saroyda yoki chodirda o‘tkazilgangi, saroy ikki – salomxona va devondan iborat bo‘lganligi o‘rganildi.

Manbalar taxlili shuni ko‘rsatdiki, davlatning ko‘plab markaziy shaharlarida hukmdor saroylari bo‘lgan. Jumladan, Tabrizda Jaloliddin Xorazmshohning saroyi bo‘lgan. Sulton boshqa shaharlarda bo‘lgan kezlarda ana shu saroylarda to‘xtar edi. Jaloliddin o‘zidan oldingi hukmdorlardan qolgan saroylardan yoki zabit etgan shaharlardagi saroylardan foydalangan.

Hukmdor sayohat yoki safarga chiqqan vaqtarda uning uchun katta bir chodir tiklangan. Chodirda ham saroydagiga o‘xshash hayot kechirilgan. Saroy tashkilotiga mansub amaldorlar bu yerda ham o‘z vazifalarini o‘tayvergan.

Olima S.Saburova[13]ning “Anushtagin – Xorazmshohlar davrida Xorazm (1097-1231 yy.)” nomli monografiyasida ta’kidlashicha “*hukmdorning saroy yoxud chodirda o‘tkazgan qabul marosimlari shartli ravishda ikki xil: rasmiy va norasmiy marosim bo‘lgan. Ayni chog‘da sultonning barcha qabul marosimlarini rasmiy yoki g‘ayrirasmiy deb keskin farqlash mushkul. Saroy xizmatchilari rasmiy marosimlarda ham, g‘ayrirasmiy marosimlarda ham o‘z vazifasini o‘tashda davom etavergan. Hukmdorning hokimiyat simvollari rasmiy va g‘ayrirasmiy qabullarda birdek qo‘llanilgan*” shu ko‘rinishda qabul marosimlari bo‘lgan.

Nasaviyning “Sulton uzoq vaqtlar faqat vaziri Sharafulmulkning fikriga qulqoq soldi”[14] degan gapi vazirning maslahat kengashlarida qatnashib va ayni zamonda sulton bilan yakkamayakka ko‘rishib turganidan ham dalolat beradi.

Bundan tashqari, vazir sulton tomonidan uyushtirilgan “ro‘zi bor” marosimida va boshqa qabul marosimlarida ham qatnashar va hojiblar bilan bir qatorda, sultonning ro‘parasida o‘tirar

edi. Jaloliddindan oldingi podshohlar davrida esa vazirlar yalpi qabul marosimlarida hukmdorning o‘ng tomonidan joy olishgan. Xorazm sultonlari o‘z vazirlariga “xoja” unvoni bilan xitob etganlar. Jaloliddin esa “Sharaf ul-mulk” unvoni bilan murojaat qildi[15]. Bu hol Jaloliddin vazirining maqomini pasaytirganini va an’analarga o‘zgartirish kiritganini yaqqol ko‘rsatadi. Aftidan Sharafulmulkning hojiblikdan vazirlik lavozimiga ko‘tarilgani bunday o‘zgarishga sabab bo‘lgan.

Sulton saroy tashkilotining yuksak martabali mansabdorlarini, hojibi xoslarni, amirlar, faqihlar va munajjamlarni yakka qabul qilgani muqarrar va tabiiy bir holdir. Zotan bu zotlar xizmat vazifasiga ko‘ra hukmdorning yaqinlari hisoblangan. Sultonning devon a’zolari va armiya qo‘mondonlarini maslahat va harbiy kengashlardan tashqari yakka yoxud guruh holida qabul qilganiga to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kam uchratdik.

Xorazmshohlar davrida qabul marosimlari muhim siyosiy va ijtimoiy voqealar bo‘lgan. Xorazmshohlar, o‘zining qudratli va boy madaniyati bilan tanilgan, shuningdek, davlat boshqaruvini o‘zining har tomonlama rasmiy va diniy marosimlari orqali amalga oshirgan. Bu marosimlar o‘ziga xos madaniy, diniy va siyosiy an’analarga ega bo‘lgan.

Xorazmshohlar saroyidagi qabul marosimlarining ba’zi asosiy jihatlari:

1. Diniy va siyosiy muhimlik: Xorazmshohlar musulmon davlatining boshliqlari bo‘lganligi sababli, diniy an’analar qabul marosimlarida katta o‘rin tutgan. Masalan, marosimlar davomida qabul qilinayotgan shaxslar diniy rahbarlar bilan ham maslahatlashar, maslahatlarga amal qilishgan.

2. Taqdirlash va sovg‘alar: Marosimlar ko‘pincha davlatning yutuqlarini nishonlash yoki yangi ittifoqlarni yaratish bilan bog‘liq bo‘lgan. Keng tarqagan an’analardan biri, tashrif buyurgan muhim shaxslarni taqdirlash, sovg‘alar berishgan. Bunda ayniqsa, jangovar yutuqlar, ilmiy kashfiyotlar yoki boshqa shaxsiy yutuqlarni e’tirof etish muhim bo‘lgan.

3. Saroy marosimlari: Xorazmshohlar saroyida bu kabi qabul marosimlari ko‘pincha katta tantanalar bilan o‘tkazilgan. Saroyda kutib olish, ovqat taqdim etish, musiqiy dasturlar va boshqa ijtimoiy tadbirlar ham bo‘lib o‘tardi. Bu marosimlar, Xorazmshohlarning o‘zlarining qudratini va mamlakat ichidagi barqarorlikni namoyish qilish usuli sifatida ham qaralgan.

4. Diplomatik aloqalar: Xorazmshohlar o‘z davrida turli davlatlar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan. Bu aloqalar turli qabul marosimlari orqali mustahkamlangan. Yirik hukmdorlar, elchilar va boshqa mamlakat vakillari qabul qilinib, turli siyosiy va harbiy masalalar muhokama qilingan.

5. Siyosiy elchilar va tadbirlar: Xorazmshohlar, o‘z davrida, boshqa davlatlardan kelgan elchilarni hurmat bilan kutib olishgan. Bu tadbirlar ko‘pincha davlatning kuchini, obro‘sini oshirishga qaratilgan bo‘lib, elchilar uchun ham katta ahamiyatga ega bo‘lgan.

Xorazmshohlar qabul marosimlarida, shuningdek, o‘z qarindoshlari, saroy ahli, ilmiy xodimlar va boshqa ma’sul shaxslar ishtirok etishgan. Bu marosimlar, davlatning ichki va tashqi siyosatini belgilashda muhim rol o‘ynagan.

Sulton o‘tkazgan boshqa qabul marosimlari to‘g‘risida mufassil ma’lumotlar yo‘q. Sultonga itoat bildirgan Yazd hokimi Alouddavla unga ko‘p tuhfalar bergen[16]. Sulton Muqonda qipchoq qabila boshliqlaridan Qurqani qabul etib, unga qo‘lini o‘pishga ijozat bergen. U Qurqaga va uning a‘yonlariga xil’atlar kiydirdi. Jaloliddin Hindistonda bo‘lgan vaqtari Saduson hokimi Faxriddin Solariyni qabul qildi. Solariy bo‘ynida kafan, qo‘lida qilich bilan kelib, itoatini bildirdi[17].

Jaloliddin Ohlat qamali vaqtida qal’a hokimi Iziddin Oybekning qaysarligidan qattiq darg‘azab bo‘lgan edi. Bu zotni qabul qilgan vaqtida sulton qo‘lini o‘ptirmadi, Oybek ko‘p yalinib –yolvorganidan so‘ng, faqat oyog‘ini o‘pishga ruxsat berdi, xolos[18].

Sulton Ganjada Ozarbayjonning otabegi O‘zbekning o‘g‘li Xomushni qabul qildi. Bu qabul qanday o‘tgani haqida ma’lumotlar kam. Qabul munosabati bilan Xomush sultonga juda qimmatbaho bir kamar taqdim etdi. Ilgari Fors maligi Kaykovusniki bo‘lgan bu kamar beba ho javohirlar bilan ziynatlangan edi. Sulton keyinchalik kamarga yana boshqa nodir toshlar o‘rnattirdi va bayram kunlari taqib yurdi.

Keyinchalik bu kamar mo‘g‘ullarning qo‘liga tushgan va Chingizxonning o‘g‘illaridan O‘gedeyga berilgan[19]. Sulton davlatni endigina barpo etayotgan vaqtarda unga vassallik izhor etgan ba’zi hukmdorlar bu hodisa munosabati bilan bajarishlari lozim bo‘lgan rasm-rusumlarni ijro etishdan bo‘yin tovlagan.

Jaloliddin Hindistondan Eronga qaytgan vaqtida Fors otabegi Sa’d ibn Zangi uni kutib olishga chiqmagan va bu ishni o‘g‘lining zimmasiga yuklagan. Sa’d bu masalada avval bergen bir qasamini vaj-karson qilib ko‘rsatgan. Ayni vaqtida u sultonga marosim liboslari, kundalik kiyim-kechaklar, dinorga to‘la kosalar, juda ko‘p ot, tuya, askariy anjom, idish-tovoq, turk va xabash g‘ulomlar hadya etdi[20].

Elchilar qabuli. Sulton Xo‘yda bo‘lgan vaqtida Alamut ismoiliylarining elchisi al-Kamol uning huzuriga kelib, Xuroson vaziri Urxonning noibi ismoiliylarga qarashli yerlarni talon-toroj etganidan shikoyat qildi. Sulton vaziriga Urxon bilan elchini yuzlashtirishni buyurdi. “Urxon al-Kamolning so‘zlarini eshitdi va uning so‘zları o‘zi uchun tahdidday tuyuldi. Shunda u kiyimlari, kamari, belbog‘i orasidan bir necha pichoqni olib, al-Kamol oldiga tashlab, bunday dedi: “Bular

sizlarning pichoqlaringiz. Bizlarning esa tig‘i o‘tkir qilichlarimiz bor. Sizlarda esa bundaylari yo‘q”. Elchi hech narsaga erisholmay qaytib ketdi[21]. Sulton Tabrizda abbosiy xalifaning elchisi Ibn Attofni qabul qildi. Elchi sultonga yangi xalifa Zohir taxtga chiqqani haqida xabar berdi. Xalifalik elchisiga sulton huzurida bir muddat qolish va oldingi elchi Roziyini sulton yuboradigan xil’atlar bilan qaytarib yuborish topshirilgan edi. Jaloliddin, tuhfa qilgan xil’atlarini berib, Roziyini o‘z elchisi bilan birga Bog‘ dodga jo‘natdi[22].

Sulton Ohlat qamali vaqtida xalifaning elchisi Sa’daddinni qabul qildi. Elchi sultondan xutbada xalifaning ismi zikr etilishini talab qildi va agar bu talab qondirilsa, sultonning yuqori martabali a’yonlari xalifa tomonidan xil’atlanajagini ilova etdi. Jaloliddin bu taklifni qabul qildi.

Shuningdek, sulton Ohlat qamali vaqtida kelgan xalifaning boshqa elchilar Falakiddin va Sa’daddinni ham qabul qildi va elchilar keltirgan xil’atni kiydi. Jaloliddin elchilar uchun “dahliz” deb atalgan chodir tiklatdi va elchilarning otga minish va tushish vaqtlarida nog‘ora chalishni buyurdi. Sulton saroyning nufuzli hojiblaridan Sa’daddinga marosim vaqtlarida elchilarga hamrohlik qilishni topshirdi[23].

Xalifa Jaloliddinga yuborgan xil’at quyidagilardan iborat edi:

1. Ikkita libos. Birinchisi - bir to‘n, bir salsa va yelka kamari, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan bir hind kamari. Ikkinchisi – bir to‘n, bir salsa, bir jubba, qimmatbaho toshlar bilan ziynatlangan bitta yelka kamari, yuzasiga ajdar tasviri tushurilgan dinorlar bilan bezatilgan “qora jul” deb nomlangan bir oltin qilich.

2. Ikkita arg‘umoq. Bu otlarning egar-jabduqlari oltin qoplamali bo‘lgan. Otlar taqdim etilganida tuyoqlariga har biri yuz dinor qiymatiga ega bo‘lgan oltin xalqalar ilig‘liq edi.

3. Yuzasi qimmatbaho javohirlar bilan bezatilgan bir qalqon. Qalqoning ustida qirq dona yoqut va la’l, o‘rtasida katta bir feruza tosh bor edi.

4. O‘ttizta ot. Bu otlarning ustiga zirqli yopinchiquqlar va rum (Vizantiya) jullari tashlangan edi. Matolari Bag‘dod atlasidan bo‘lgan. Har otning bo‘yniga tashlangan ipak jilovlarga oltmis dona xalifa dinori osig‘liq edi. Bu otlar 20-30 nafar sayis yetovida edi.

5. Oltin bo‘yinbog‘li o‘n dona hind cho‘l mushugi.

6. Bosh yopinchig‘i nafis ishlangan o‘n dona lochin.

7. Har biri o‘nta ko‘ylaklik 150 to‘p gazlama.

8. Oltin chambarli o‘n dona anbardan ishlangan to‘p.

9. Ikki g‘ulom tomonidan ko‘tarib keltirilgan 5-6 gaz uzunlikdagi bir sarv yog‘ochi.

10. Xonlarga o‘n to‘rt dona xil’at. Har biriga oltin qoplamali suvlik va jilovi bo‘lgan bittadan ot. Bu otlarning ustida Tiflis gurzilari bor edi.

11. Amirlarga uch yuz dona xil’at. Har bir amirga bitta to‘n va bitta salsa.

Bundan tashqari devon a'zolariga yigirma dona xil'at. Sulton va davlat arkoniga juda qimmatbaho sovg'alar keltirgan elchilar Jaloliddin ularning chodiriga kelib, xil'at kiyadi, deb kutgan edilar. Sulton esa boshqa bir chodir tiklatdi va o'sha kuni ikki xil'atni kiydi. Biroq sulton elchilarining Ohlat qamalidan voz kechish to'g'risidagi talablarini rad qildi[24].

Jaloliddin Ohlat qamali vaqtida Alouddin Qayqubodning elchilari bo'lgan Shamsiddin Oltin Oba va Kamoliddin Kamyosni ham qabul qildi. Elchi Jaloliddinga quyidagi hadyalarini keltirgan edi: atlas, xitoyi matolar, qunduzlar, suvsar terilari va boshqa yuklar ortilgan o'ttizta xachir, boshdan-oyoq qurollangan hamda o'z otlariga ega bo'lgan o'ttizta mamluk, egar-jabduqli yuzta ot, ellikta xachir. Hadyalar taqdim etilgan vaqtida sultonning vasallariga xos marosim o'tkazildi.

Shu tariqa Xorazmshoh Alouddin Qayqubodni o'ziga teng ko'rishni istamadi. Oltin Oba hojibi xos bilan birga sulton huzurida oyoqda qoldi. Hojib o'z vazifasiga muvofiq, tuhfalarini sultonga sanab berdi[25]. Qayqubodning Xorazmshohga xil'at bergeniga va elchining yer o'pganiga oid ma'lumot yo'q.

Jaloliddin diqqatga sazovor bir qabul marosimi o'tkazdi: u ayol elchilarni qabul qildi. Ozarbayjonning sobiq otabegi O'zbekning xotini unga ayol elchilar yuborib, turmush qurish taklifini bildirdi va Jaloliddin bu taklifni qabul qildi[26]. Afsuski, bu qabul marosimi qanday o'tgani to'g'risida uncha ko'p ma'lumot yo'q.

Maslahat kengashi. Jaloliddin Xorazmshoh boshqa hukmdorlar singari o'z maslahatchilarini qabul qilib, davlat ishlari to'g'risida ulardan maslahat olib turar edi. Sulton ularni yo yakka yoki guruh holda qabul qilgan. Sultonning vaziri yakka holda eng ko'p qabul qilingan. Sulton vazir bilan davlat ahamiyatiga molik masalalar to'g'risida maslahatlashar, undan keyin qaror qabul qilardi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, sulton ko'p ishlar mobaynida Sharaful mulkning fikriga suyandi. Vazirning e'tibori baland edi. Sulton devon a'zolari, viloyat vazirlari, saroy va armiyaning yuksak martabali amaldorlarini ham kengashmoq uchun yakka tartibda qabul qilib turgani tabiiy, albatta.

Harbiy va siyosiy hodisalar taqozosi bilan vazirning saroydan uzoqda bo'lishi natijasida Sulton yuqorida tilga olingan zotlarni qabul qilib, ular bilan maslahatlashib turgan. Bulardan tashqari sultonning biron-bir rasmiy mansab egasi bo'lmagan kishilar bilan ham kengashib turgani muqarrardir. Masalan, sulton obro'li va aslzoda bir oiladan chiqqan Nizomiddin Somoniyni qabul qilib, fikrini olib turgan.

Vazir Iroqi Ajam noibi, ba'zi viloyatlarning vazirlari, devon a'zolari sultonning maslahat kengashlariga qatnashib turgan mansabdorlardandir. Bulardan tashqari armiya va saroy

arkonining yuqori martabali mansabdorlari, xususan hojibi xos va faqihlar ham maslahat kengashlariga qatnashgan bo‘lsalar kerak.

Maslahat kengashining to‘planish tartibi, majlis vaqtি haqida aniq bir ma’lumotga ega emasmiz. Raiyatning qabuli. Aftidan sharoit taqozosiga ko‘ra, Jaloliddin davrida turli-tuman shikoyat, istaklar bilan sulton huzuriga kelgan raiyat har holda u qadar ko‘p qabul etilmagan bo‘lsa kerak. Sulton istak va shikoyatlarni asosan yozma ravishda qabul qilgani va yozma javob qaytargani, saroyda bu ishga mas’ul qissador maqomi uning davrida nufuzli mansablardan biriga aylangani e’tiborga olinsa, raiyatning kam qabul qilingani tabiiy bir hol ekani ma’lum bo‘ladi.

Shunga qaramay, sulton raiyatni qabul qilib turganiga oid misollar mavjud. Masalan, u Ray shahrida Xurosonning nufuzli kishilarini qabul qilgan. Ular Xuroson vaziri Safiuddin Muhammad Tug‘roning viloyatni yaxshi boshqara olmayotganidan va qo‘rs muomalasidan shikoyat qilganlar. Sulton bu shikoyatni asosli deb topdi va vazirni qamattirib, mol-mulkini musodara qildirdi. Uning o‘rniga Tojiddin Balxiyni tayinladi[27].

Ziyofat. Bu hukmdorning dasturxon ustida uyushtirgan qabul marosimidir. Hukmdorning bunday xos ziyofatlariga vazir va yuqori mansab egasi bo‘lgan arkoni davlat ishtirok etgan. Hukmdor yozgan dasturxon atrofida sulton yonida o‘tirish uchun vazir “nizomul-mulk” unvoniga ega bo‘lishi lozim edi. Biroq Jaloliddinning vaziri garchi “sharafulmulk” unvoni sohibi bo‘lsa-da, dasturxon atrofida hojiblar orasida o‘tirgan[28]. Sultonga tobe hukmdorlar va elchilar ham ziyofatlarga qatnashgan. Hatto Ohlat zabit etilganidan so‘ng sulton taslim bo‘lgan ikkita amirni dasturxonga taklif qilgan. Faqat, taslim bo‘lmay, mudofaani uzoq cho‘zib yuborgani uchun bo‘lsa kerak, Iziddin Oybekni dasturxonga taklif qilmagan va unga oyoq ustida turishni buyurgan.

Aysh-ishrat majlisi. Hukmdorning ichkilikli ziyofatidir. Aftidan, bu majlisga hukmdorning o‘ziga yaqin olgan va taqdirlamoqchi bo‘lgan kishilar qatnashgan. Shuningdek, bu majlisga turli unvon, rutba va maqom egalari ham qatnashishi mumkin edi. Vazir aysh-ishrat majlisiga ishtirok etar, biroq sultonga hurmat yuzasidan, an’anaga muvofiq, ichkilik ichmasdi.

Jaloliddin o‘tkazgan bir aysh-ishrat majlisi jinoyat bilan yakunlandi. Sultonning hurmatini kozongan kishilardan bo‘lgan Isfaxon shixnasi Ibn Harmil bilan G‘iyosiddin Pirshoh kayf ustida aytishib qoldilar va bir-birini haqoratladilar. Ziyofatdan so‘ng G‘iyosiddin Ibn Harmilning uyiga borib, uni xanjar urib o‘ldirdi. Jaloliddin ukasining qilmishidan qattiq g‘azablandi va ishni qoziga oshirdi.

G‘iyosiddin esa Jaloliddinning g‘azabidan qo‘rqib, qochib ketdi[29]. Xilvat. Hukmdorning biror kishi bilan yashirinchha ko‘rishi shiga xilvat deyilgan. Jaloliddin eng avvalo, mahramlarini, so‘ng boshqa davlat a’yonlarini xilvatda qabul qilib turgan.

Xorazmshohlar davri (XI–XIII asrlar) O‘rta Osiyo tarixining muhim davrlaridan biri bo‘lib, u zamonda Xorazmshohlar o‘z hokimiyatini mustaqil shohligi va boshqa hududlarda o‘rnatganlar. Bu davrda qabul marosimlari va an’analarining o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lgan.

Xorazmshohlar davrida qabul marosimlari, ko‘plab jihatlari bilan o‘zining rasm-rusmlari va siyosiy maqsadlari bilan ajralib turadi. Quyidagi nuqtalar bu davrning qabul marosimlari bilan bog‘liq:

1. Siyosiy va rasmiy marosimlar: Xorazmshohlar davlatining poytaxti Urganchda yoki boshqa shaharlarida yirik marosimlar, qabul va xushxabarlar, elchilarni kutish, rasmiyalar bilan uchrashuvlar o‘tkazilgan. Bu marosimlar hukmdorning hokimiyatini mustahkamlash, yangi ittifoqlar tuzish yoki siyosiy qarorlarni e’lon qilish uchun ishlatilgan.

2. Elchi qabul qilish marosimi: Xorazmshohlar davrida elchi va elchixonalar juda muhim edi. Elchi qabul qilish marosimlari katta hurmat va ehtiyojkorlik bilan o‘tkazilgan. Elchilarni kutib olishda maxsus kiyim va saroylar, ma’lum bir tartibga rioya qilish kerak bo‘lgan.

3. Din va diniy marosimlar: Xorazmshohlar Islomni rasmiy din sifatida qabul qilganlar. Shuning uchun diniy marosimlar, jumladan, yangi shohni taxtga o‘tkazish marosimlarida Islomiy an’analar va shakllar hukmron edi. Bu marosimlar odatda masjidlarda yoki saroylarda bo‘lib o‘tgan.

4. Hukmdorning taxtga chiqish marosimi: Xorazmshoh hukmdori taxtga o‘tirganida, bu katta bir marosim bo‘lib, barcha elchilar, yuqori darajadagi amaldorlar va harbiylar qatnashgan. Taxtga o‘tirishning o‘ziga xos diniy va siyosiy ma’nosи bo‘lgan.

5. Oqsoqollar va ma’rifatning o‘rni: Xorazmshohlar davrida oqsoqollar, ya’ni tajribali va hurmatga sazovor kishilar marosimlarda muhim rol o‘ynagan. Ular ko‘pincha hukmdorni maslahat berish, yangi qonunlar yaratish yoki siyosiy qarorlar olishda ishtirok etganlar.

Umuman olganda, Xorazmshohlar davrida qabul marosimlari nafaqat siyosiy, balki diniy, madaniy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo‘lgan. Bu marosimlar hukmdorning hokimiyatini mustahkamlash, davlatning obro‘sini oshirish va aholi bilan aloqalarni yaxshilash uchun ishlatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Madamin Eshmurodov. Xorazm manbalarida davlatchilik tarixi (monografiya). X., 2024. B-98.
2. Ибн ал-Асир. Ал-комил фи-т-тарих. // Қўлёзма, ЎзФАШИ. №824, I-VI жиллар; №825, VII-XII жиллар; Ибн ал-Асир. Ал-камил фи-т-тарих. Полный свод истории. Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова. Дополнения к

переводу, примечаниям и комментариям введение и указатели Ш.С. Камолиддина. Т.: Узбекистан, 2006.

3. Ёқут ал-Ҳамавий. Муъжам ал-булдон. Миср, 1906.
4. Ёқут ал-Ҳамавий. Муъжам ал-удабо. Миср, 1925, 1929, 1931; Элмуров И. Ёқут ал-Ҳамавийнинг “Муъжам ал-удабо” асари X-XII асрлар Хоразм илм-фани ва адабиёти тарихини ўрганишда мухим манба. Тарих фанлари номзод. дисс. Т., 2002.
5. Рашидиддин ибн Фазлуллоҳ. Жомеъ ут-таворих. // Қўлёзма. Ўз ФАШИ. № 1620, №1643. Сборник летописей. Т. I-III. М., -Л., 1940, 1952. Унинг ўзбек тилидаги таржимасига қаранг: Насавий Шиҳобиддин Муҳаммад. Султон Жалолиддин Мангуберди. (К.Матёкубов таржимаси) Т.: Ўзбекистон, 2006.
6. Низоми Арузи Самарқандий. Мажмаъ ал-ғаройиб (Чор мақола) (Форс тилидан ўзбек тилига Б.Аҳмедов томонидан таржима қилинган)
7. Толстов С.П По следам древнехорезмийской цивилизации. М., -Л., Изд-во Акад. наук СССР, 1948.
8. Жабборов И. Буюк Хоразмшоҳлар давлати (Қадимий тарих саҳифалари). Т.: Шарқ. 1999.
9. Т. Сайдкулов. Ўрта Осиё халқлари тарихининг тарихшунослигидан лавҳалар. Т.: Ўқитувчи, 1993.
10. Иброҳим Қофас ўғли. Хоразмшоҳлар давлати тарихи 485-618/1092-1221. Анқара (Туркия), 1992.
11. Буниёдов З Ануштагин – Хоразмшоҳлар давлати (1097-1231) (Аҳмад Ашраф ва Маҳкам Маҳмуд таржимаси). Т.: F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1998.
12. Сабурова С. Ануштагин – Хоразмшоҳлар даврида Хоразм (1097-1231 йй.). Т.. Nihol, 2008.
13. Ан-Насавий. Кўрсатилган асар, 103- боб, 281- бет.
14. Шу асар, 44- боб, 129- бет.
15. Шу асар, 42- боб, 121- бет.
16. Шу асар, 40- боб, 115- бет, муқаддима, 331- бет.
17. Шу асар, 86- боб, 239- бет.
18. Шу асар, 58- боб, 159- бет.
19. Шу асар, 42- боб, 121-122- бетлар, муқаддима, 334- бет.
20. Шу асар, 60- боб, 162- бет.
21. Шу асар, 75- боб, 205- бет.
22. Ан-Насавий. Кўрсатилган асар, 85- боб, 226- бет.

23. Ойдин Тонарий. Кўрсатилган асар, 80, 81- бетлар. Яна қаранг: Ан-Насафий. Кўрсатилган асар, 85-боб, 226-228- бетлар.
24. Ан-Насавий. Кўрсатилган асар, 85- боб, 236- бет.
25. Шу асар, 51- боб, 145-146- бетлар.
26. Машварат (маслаҳат) мажлиси – давлат ишлари муҳокама этилиб, қарорлар қабул қилинган бир мажлис. Машхур салжуқий вазир Низомулмулкнинг “Сиёсатнома” асарида машваратнинг аҳамияти бундай таърифланган: “Давлат ишлари тўғрисида бошқалар билан маслаҳатлашмоқ инсоннинг фикрини кучайтиради, узил-кесил қарор қабул қилишига ва олдиндан кўра билишига ёрдам беради. Чунки, ҳар бир кишининг ўзига яраша билими бор. Бирор кўпроқ, бошқаси озроқ билади. Баъзи бировлар билими бўлса-да, уни тажрибаси йўқлиги сабабли ишга сололмайди. Яна бирор билим эгаси бўлиш билан бир қаторда уни тадбиқ ҳам қила олади, чунки у тажрибалироқдир”. Ойдин Тонарий. Кўрсатилган асар, 120-бет.
27. Ан-Насавий. Кўрсатилган асар, 64- боб, 178, 179- бетлар.
28. Шу асар, 44- боб, 129- бет.
29. Ойдин Тонарий. Кўрсатилган асар, 97- бет. Яна қаранг: ан-Насавий. Кўрсатилган асар, 62- боб, 173-бет.